Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir	1836
D. Teshaboyev, Z. Boymatova	
Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi	1839
Boymirzayeva Madina Ilhomjon qizi	
Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulrux Xabibullaevna	
Dizartriyali bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
<i>Axmedjonova Nozigul Zaripovna</i>	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
<i>Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna</i>	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari.....	1880
<i>Bayzakova Malika</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
<i>Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno</i>	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
<i>Botirova M. B.</i>	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
<i>Celal Algan</i>	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
<i>D. G'. Akramova</i>	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
<i>Dostanova Kamola Alisher qizi</i>	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
<i>Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna</i>	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
<i>Elyor A Pazilov</i>	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
<i>Ermatova Gullola Ziyod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
<i>Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
<i>Gapparova Zilola Neymat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
<i>Hayitboevna Zarina Otazarovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
<i>Hojimatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
<i>Inobatxon Toshpo'latova</i>	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni.....	1937
<i>Jo'lliboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
<i>Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich</i>	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
<i>Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna</i>	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
<i>Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li</i>	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
<i>Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna</i>	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
<i>Karimov Ilhom Normamatovich</i>	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
<i>Kayumova Dilnoza Patxulla qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi..... 1978 Madumarov Shodonbek Az'amjonovich</p> <p>Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili..... 1982 Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi</p> <p>Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini 1986 Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati..... 1990 Murodova Farangis G'anisherovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari 1994 Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi</p> <p>Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli 1997 Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li</p> <p>Ingliz tilini o'rgatishda interogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi 2003 Normamatova Dilfuza Turdikulovna</p> <p>Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati 2008 Quldosheva Dilso'z Sunnatovna</p> <p>Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish..... 2011 Romanova Lola Karimbayevna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish..... 2014 Rustamova Gulmira Yoryigit qizi</p> <p>Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari 2018 Sadinov Oybek Ziyot o'g'li</p> <p>Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish 2021 Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</p> <p>Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish 2024 Shermuxevedova Dilnozaxon Raximiddjanovna</p> <p>Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi 2028 Shirinov Feruzjon Shuxratovich</p> <p>Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi 2031 Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi 2034 Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich</p> <p>Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish 2039 Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi</p> <p>Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish 2043 Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi</p> <p>Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi 2046 Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna</p> <p>Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash 2050 Umarov Abdurasul Abduraximovich</p> <p>Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi..... 2058 Umarov Xusanboy Rustamovich</p> <p>Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences..... 2062 Usmanova Nargiza Kudiratullayevna</p> <p>Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil) 2065 Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich</p> <p>Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari 2069 Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li</p> <p>Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ... 2073 Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li</p> <p>Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari 2080 Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna</p>
-------------------------------	---



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoira Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yoldasheva Dilshoda To'lqinovna	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	



IBN SINO ASARLARIDA EMOTSIYALARNING SHAXS FAOLIYATIGA TA'SIRI TALQINI

Dostanova Kamola Alisher qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-3679-0669>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning emotsiyalar haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlari, ularning inson faoliyati, xulq-atvori va ruhiy barqarorligiga ta'siri chuqur tahlil etiladi. Tadqiqotda allomaning "Tib qonunlari", "Donishnoma", "Kitob ash-shifo" kabi asarlarida keltirilgan hissiy jarayonlarning psixofiziologik asoslari, emotsiyalarning rag'batlantiruvchi, tormozlovchi va muvozanatlashtiruvchi funksiyalari ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Ibn Sino emotsiyalarni nafaqat ruhiy holat, balki shaxs faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida sharhlaydi. Maqolada emotsiyalarni boshqarishning aql, iroda, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy muhit bilan bog'liq mexanizmlari ham yoritilib, ularning zamonaviy psixologiya, pedagogika va shaxs taraqqiyoti uchun ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari Ibn Sino qarashlarining bugungi kunda ham dolzarbligini tasdiqlaydi va emotsional intellekt tamoyillari bilan uzviy uyg'unligini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, emotsiyalar, shaxs faoliyati, psixologiya tarixi, nafsiy holatlar, motivatsiya, emotsional intellekt, ruhiy barqarorlik, axloqiy me'yorlar, psixosomatika.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of Abu Ali Ibn Sina's scientific and philosophical views on emotions, as well as their influence on human activity, behavior, and psychological stability. The study examines the psychophysiological foundations of emotional processes described in the scholar's works, such as The Canon of Medicine, The Book of Knowledge (Danishnama), and The Book of Healing (Kitab al-Shifa). The functions of emotions—as motivators, inhibitors, and regulators—are explored through a scientific approach. Ibn Sina interprets emotions not only as mental states but also as driving forces of human activity. The article further discusses mechanisms for regulating emotions, linked to reason, willpower, moral standards, and social environment, highlighting their relevance for modern psychology, pedagogy, and personal development. The findings confirm the continued relevance of Ibn Sina's views and their intrinsic alignment with the principles of emotional intelligence.

Key words: Ibn Sina, emotions, human activity, history of psychology, mental states, motivation, emotional intelligence, psychological stability, moral standards, psychosomatics.

Аннотация: В данной статье представлен глубокий анализ научно-философских взглядов Абу Али Ибн Сины на эмоции и их влияние на деятельность человека, поведение и психическую устойчивость. Исследование рассматривает психофизиологические основы эмоциональных процессов, описанные в трудах ученого, таких как "Канон врачебной науки", "Данышнама" и "Книга исцеления" (Китаб аш-Шифа). Функции эмоций – стимулирующая, тормозящая и регулирующая – изучены с научной точки зрения. Ибн Сина рассматривает эмоции не только как психические состояния, но и как движущие силы человеческой деятельности. В статье также освещены механизмы управления эмоциями, связанные с разумом, волей, моральными нормами и социальным окружением, подчеркивая их значение для современной психологии, педагогики и личностного развития. Результаты исследования подтверждают актуальность взглядов Ибн Сины и их органичную связь с принципами эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: Ибн Сина, эмоции, деятельность личности, история психологии, психические состояния, мотивация, эмоциональный интеллект, психологическая устойчивость, моральные нормы, психосоматика.

KIRISH

Inson psixologiyasi va ruhiy jarayonlarini o'rganish tarixida Sharq mutafakkirlarining o'rni beqiyosdir. Ulardan biri, jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino (980–1037) emotsiyalar, ularning shaxs faoliyatiga ta'siri, ruhiy holatlar va inson xulq-atvori bilan bog'liq jarayonlarni g'oyat nozik ilmiy yondashuv bilan izohlagan allomalardandir. Uning "Kitob ash-shifo", "Tib qonunlari", "Ishorat va tanbihat", "Donishnoma" kabi fundamental asarlarida inson ruhiyati, hissiyotlar tabiati, ularning fiziologik va psixologik mexanizmlari, shuningdek, aql va nafs o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimli ravishda yoritilgan.

Ibn Sino emotsiyalarni faqat ruhiy jarayon deb emas, balki jismoniy, aqliy va axloqiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, inson faoliyatini boshqaruvchi muhim mexanizm sifatida tahlil qiladi. Emotsiyalar, uning fikriga ko'ra, insonni faoliyatga undovchi yoki aksincha uni tormozlovchi kuch bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, alloma shaxsning muvaffaqiyati, mehnat unumdorligi, ijtimoiy munosabatlari va ijodiy faoliyatida hissiy holatlarning hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaydi. U quvonch, muhabbat, umid kabi ijobiy emotsiyalarni shaxsning ruhiy ko'tarinkiligini oshiruvchi va tafakkurni faollashtiruvchi omillar sifatida ko'radi, qo'rquv, g'azab, nafrat kabi salbiy emotsiyalarni esa to'g'ri boshqarilmasa, insonning aqliy faoliyatini susaytiruvchi kuch sifatida baholaydi.

Bu yondashuv zamonaviy psixologiyada mavjud bo'lgan kognitiv-emotsional nazariyalar, stressni boshqarish modellari va emotsional intellekt konsepsiyalari bilan bevosita uyg'unlik kasb etadi ^[1-3]. Ibn Sino asarlarida emotsiyalarni boshqarish masalasi alohida ahamiyatga ega. Alloma emotsional barqarorlikni aql, iroda tarbiyasi, axloqiy me'yorga amal qilish, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy muhit bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, ruhiy muvozanatga ega shaxs hayotda to'g'ri qaror qabul qiladi, faoliyatda samarali bo'ladi va jamiyatda mustahkam o'rniga ega bo'ladi ^[4]. Shunday qilib, Ibn Sinoning emotsiyalar haqidagi qarashlari inson psixologiyasining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba bo'lgan hamda bugungi davr psixologiyasi, pedagogikasi va shaxs taraqqiyotida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ibn Sino (Avitsenna) falsafiy va psixologik qarashlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Abdullayev (2008) asarida Ibn Sino falsafasidagi inson ruhiyati va uning xulq-atvordagi o'rni tahlil qilingan. Muallif ruh va nafsning o'zaro bog'liqligini, shuningdek, shaxs faoliyatiga emotsiyalarning ta'sirini falsafiy asosda ko'rsatadi. Karimov (2012) esa sharq allomalari merosida ruhiyat va nafs masalalarini tahlil qilib, emotsiyalar va insonning ichki dunyosi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. U emotsiyalarning shaxsiy xulq-atvor va qaror qabul qilish jarayonlarida qanday rol o'ynashini amaliy va nazariy jihatdan izohlaydi. Psixologik nuqtai nazardan, Jo'rayev (2018) va Qodirova (2017) umumiy psixologiya asoslari bilan tanishtiradi, shuningdek, shaxs rivojlanishidagi emotsiyalarning funksional roli va ularning nazariy asoslarini tahlil qiladi. Karimov (2020) esa emotsiyalar va ularning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini konkret ilmiy misollar bilan ochib beradi, bu esa Ibn Sino qarashlarini zamonaviy psixologiya kontekstida tushunishga yordam beradi.

Ochildiyev (2015) va To'laganova (2022) maqolalarida Ibn Sino ta'limotidagi nafs va ruhiy jarayonlar, shuningdek, emotsiyalarning inson faoliyatidagi amaliy ta'siri muhokama qilinadi. Bu manbalar muallifga Ibn Sino nazariyasi asosida shaxs faoliyatiga emotsiyalarning ijobiy va salbiy ta'sirlarini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, Rasulov (2021) va Sodiqova (2019) emotsional barqarorlik va pedagogik psixologiya masalalarini ko'rib chiqadi. Ularning tadqiqotlari shaxs faoliyatida emotsiyalarning barqarorligi va samaradorligi, shuningdek, o'quv jarayonida ularning roli haqida muhim ma'lumotlar beradi. Yo'ldoshev (2016) esa ruhiyat va xulq-atvor psixologiyasini o'rganib, emotsiyalarning shaxs xulq-atvoridagi ahamiyatini amaliy jihatdan izohlaydi. Bu tadqiqotlar Ibn Sino qarashlarini psixologik va pedagogik kontekstlarda tushunishga yordam beradi, shuningdek zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan bog'lash imkonini yaratadi. Umuman olganda, taqdim etilgan adabiyotlar to'plami Ibn Sino asarlaridagi emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'sirini chuqur tahlil qilish va ularni zamonaviy psixologik nazariya bilan bog'lash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu manbalar mavzu bo'yicha nazariy asoslar, metodologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni birlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri qanday talqin etilganini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida tarixiy-falsafiy tahlil, kontent tahlili, komparativ tahlil, mantiqiy-analitik yondashuv va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanishini kuchaytirish maqsadida birlamchi manbalar, ayniqsa Ibn Sinoning asli arab tilidagi "Ash-shifo", "An-najot", "Qonun fit-tibb", "Donishnoma" kabi asarlarining ilmiy tarjimalari va tanqidiy matnlari asosiy manbalar sifatida tanlandi. Shuningdek, allomaning psixologiya, axloqshunoslik va falsafaga oid qarashlarini tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotchilar ishlari ham qo'shimcha nazariy asos sifatida jalb etildi. Tarixiy-falsafiy tahlil metodi tadqiqotning nazariy poydevorini shakllantirishda asosiy metod sifatida qo'llandi. Ushbu usul orqali Ibn Sinoning yashagan davri, ilmiy maktabi, uning Aristotel, Forobiy, Galen kabi mutafakkirlar bilan bog'liq intellektual merosidan ta'sirlanish darajasi hamda Sharq falsafasidagi ruhiy jarayonlar talqinining umumiy xususiyatlari o'rganildi. Bu yondashuv emotsiyalarning tabiati va ularning inson faoliyatiga ta'sirini tushunishda alloma qarashlarining tarixiy ildizlarini ochib berishga yordam berdi.

Kontent tahlili metodi yordamida Ibn Sinoning asarlarida uchraydigan emotsiyalar, nafsiy holatlar, ruhiy jarayonlar, axloqiy sifatlar va psixofiziologik ta'sirlar bilan bog'liq tushunchalar tizimli o'rganildi. Tahlil davomida



emotsiyalar turkumlari, ularning aql, nafs va tana faoliyati bilan o'zaro aloqasi bo'yicha matnli birliklar aniqlanib, tematik kodlash orqali guruhlashtirildi. Natijada Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan emotsional holatlarning tasnifi, ularning kuchayishi, kamayishi va boshqarilishiga doir ilmiy g'oyalarning mazmuni ochib berildi [5-7].

Komparativ tahlil metodi tadqiqotning muhim bosqichini tashkil etdi. Bu metod orqali Ibn Sinoning emotsiyalar haqidagi qarashlari Aristotel, Galen, Forobiy kabi avvalgi mutafakkirlarning qarashlari bilan hamda zamonaviy psixologiya, xususan emotsional intellekt, motivatsiya, affektiv psixologiya nazariyalari bilan taqqoslandi. Natijada allomaning qarashlari qaysi jihatlari bilan o'ziga xos, qaysi jihatlari bilan zamonaviy ilmiy yondashuvlarga yaqin yoki farq qilishi aniqlandi. Mantiqiy-analitik metod tadqiqot mazmunini chuqurlashtirish maqsadida qo'llanilib, Ibn Sino asarlaridagi atama va tushunchalarning nazariy va amaliy mazmuni tahlil qilindi. Emotsiyalarni boshqarish mexanizmlari, shaxs faoliyatidagi motivatsion jarayonlar, ruhiy barqarorlik va axloqiy intizomga doir g'oyalar ilmiy asosda izohlandi. Tizimli yondashuv orqali emotsiyalar, aql, nafs, tana va axloq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tarzda o'rganish imkoniyati yaratildi. Bu yondashuv Ibn Sino qarashlarida emotsiyalar inson faoliyati tizimining markaziy elementi sifatida qanday talqin qilinganini izchil ochib berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyati, uning ruhiy barqarorligi, xulq-atvori va intellektual rivojlanishiga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, alloma emotsiyalarni inson hayotidagi markaziy psixologik kuch sifatida talqin qiladi va hissiy holatlarning ijobiy yoki salbiy bo'lishi shaxsning faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etadi. Ibn Sino qarashlari zamonaviy psixologiya bilan qiyoslanganda, uning ko'plab fikrlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagani aniqlandi. Ayniqsa, emotsiyalarning fiziologik, psixologik va axloqiy jihatlarni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqishi uni emotsional intellektning erta nazariy asoschilaridan biri sifatida baholash imkonini beradi [8,9].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Ibn Sino emotsiyalarni uch asosiy funksiyaga ega bo'lgan hodisa sifatida tasvirlaydi: rag'batlantiruvchi, tormozlovchi va muvozanatlashtiruvchi kuch. Quvonch, muhabbat, umid kabi ijobiy emotsiyalar insonning ijodiy fikrlashi, mehnatga bo'lgan qiziqishi va intellektual salohiyati oshishiga xizmat qiladi. Salbiy emotsiyalar esa, masalan, qo'rquv yoki g'azab, nazorat qilinmagan taqdirda shaxsning fikrlash jarayonini susaytiradi, jismoniy quvvatini pasaytiradi va xatti-harakatlarni nomutanosib holga keltiradi. Biroq Ibn Sino salbiy emotsiyalarni mutlaqo zararli deb bilmaydi; agar ular aql tomonidan boshqarilsa, irodani mustahkamlashi va insonni hushyor tutishi mumkin.


Muhokama jarayonida aniqlandi: Ibn Sinoning emotsiyalarni boshqarish haqidagi qarashlari ayniqsa muhimdir. Unga ko'ra, inson o'z hissiyotlarini nazorat qilishi uchun kuchli iroda, aql, axloqiy me'yorga amal qilish, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy muhit bilan uyg'un yashashi zarur. Bu tamoyillar zamonaviy psixologiyada stressni boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish, kognitiv-behavioral terapiya kabi konsepsiyalarga juda yaqin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, emotsiyalar va aql o'rtasidagi o'zaro ta'sir Ibn Sino ta'limotida fundamental masalalardan biridir. Alloma emotsiyalarni aqlga bo'ysundiradigan, lekin aqlni ham faoliyatga undaydigan ikki tomonlama jarayon sifatida ko'radi. Bu yondashuv bugungi kunda mavjud bo'lgan "affektiv-kognitiv integratsiya" modellari bilan mos keladi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, quyidagi jadvalda Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning asosiy funksiyalari, ularning shaxs faoliyatiga ta'siri va zamonaviy psixologiyadagi mos tushunchalar taqqoslab berildi.

1-jadval: Ibn Sino qarashlarida emotsiyalar funksiyasi va ularning shaxs faoliyatiga ta'siri

Emotsiya turi	Ibn Sino talqini	Shaxs faoliyatiga ta'siri	Zamonaviy psixologiyada mos tushuncha
Ijobiy emotsiyalar	Quvonch, muhabbat, umid, zavq – ruhni yuksaltiradi	Faollikni oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi	Pozitiv psixologiya, motivatsion emotsiyalar
Salbiy emotsiyalar	Qo'rquv, g'azab, qayg'u – nazorat qilinmasa zararli	Faoliyatni sekinlashtiradi, fikrlashni susaytiradi, stressni oshiradi	Stress nazariyasi, affektiv buzilishlar
Barqaror emotsiyalar	Sabr, qanoat, me'yoriy ruhiy holatlar	Ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi, qarorlarni puxta qiladi	Emotsional intellekt, mindfulness
Aralash emotsiyalar	Yaxshi yoki yomon oqibatga ega bo'lishi mumkin	Ijobiy boshqarilsa – foydali, boshqarilmasa – zararli	Kompleks emotsiyalar, kognitiv baholash nazariyasi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Ibn Sino emotsiyalarni insonning jismoniy sog'lig'i, ruhiy barqarorligi, irodasi, axloqiy kamoloti va intellektual rivoji bilan uzviy bog'liq deb hisoblaydi. Bu yondashuv shaxs psixologiyasi, pedagogika, tarbiya nazariyasi, boshqaruv va kommunikatsiya sohalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy asoslarni yaratadi.



1-rasm: Ibn Sino talqini bo'yicha emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'sir darajasi

Emotsiyalarni boshqarish bo'yicha Ibn Sino ilgari surgan tamoyillar zamonaviy ilmiy modellar bilan uyg'un bo'lib, ularning amaliy ahamiyati yuqori ekani muhokama davomida tasdiqlandi ^[10].

XULOSA

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Abu Ali ibn Sinoning emotsiyalar haqidagi qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari uchun ham juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Alloma emotsiyalarni shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, ularning fiziologik, psixologik va axloqiy jihatlarini bir butun yaxlit tizimda o'rganadi. Ibn Sino fikricha, emotsiyalar aql, nafs, tana va ruhiy jarayonlarning uzviy bog'liqligida shakllanib, ularning boshqarilishi shaxsning kamolotida hal qiluvchi o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari tasdiqladiki, ijobiy emotsiyalar insonning ijodiy fikrlashi, mehnatga bo'lgan qiziqishi va faoliyat samaradorligini oshirsa, nazorat qilinmagan salbiy emotsiyalar fikrlash jarayonini susaytiradi, ruhiy barqarorlikni izdan chiqaradi. Shu bilan birga, Ibn Sino salbiy emotsiyalarni mutlaqo zararli deb bilmay, ularni aql tomonidan to'g'ri yo'naltirilganda foydali bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Allomaning emotsiyalarni boshqarish haqidagi yondashuvi zamonaviy emotsional intellekt, stressni boshqarish, affektiv psixologiya kabi konsepsiyalar bilan mazmunan uyg'un bo'lib, uning qarashlari hozirgi davr ilmiy g'oyalarining tarixiy ildizlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, Ibn Sino emotsiyalarni nafaqat hissiy jarayon, balki insonning axloqiy fazilati, irodaviy sifatleri va intellektual rivoji bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida izohlaydi. Bu esa uning psixologiya fani rivojiga qo'shgan hissasining naqadar keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, shaxs tarbiyasi, boshqaruv psixologiyasi, pedagogika, tibbiyot va kommunikatsiya sohalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot alloma merosining yangi qirralarini ochib berish bilan birga, zamonaviy psixologiya nazariyalarini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, A. (2008). Ibn Sino falsafiy qarashlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karimov, H. (2012). Sharq allomalari merosida ruhiyat va nafs masalalari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Jo'rayev, N. (2018). Psixologiya asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
4. Karimov, B. (2020). Emotsiyalar va ularning shaxs rivojlanishidagi o'rni. Psixologiya, 4(2), 33–41.
5. Qodirova, M. (2017). Umumiy psixologiya. Toshkent: Turon-Iqbol.
6. Ochildiyev, A. (2015). Ibn Sino ta'limotida nafs va ruhiy jarayonlar talqini. Sharqshunoslik jurnali, 3(1), 52–60.
7. Rasulov, Sh. (2021). Emotsional barqarorlikning shaxs faoliyatiga ta'siri. Oliy ta'lim muammolari, 2(5), 74–81.
8. Sodiqova, G. (2019). Pedagogik va yosh psixologiyasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti.
9. To'laganova, D. (2022). Sharq tibbiy-falsafiy merosida emotsiyalar muammosi. Falsafa va hayot, 5(3), 110–118.
10. Yo'ldoshev, Q. (2016). Ruhiyat va xulq-atvor psixologiyasi. Toshkent: Yangi asr avlodi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.